

# Ta'lim to'g'risidagi qonuni yangi bosqichga olib chiqish istiqboli

Sevara Komil qizi Ergasheva  
Mohichehra Davronbek qizi Mamadaliyeva  
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim to'risidagi yangi qonun haqida, ta'lim turlari, ta'lim tizimida islohotlarini keltirilgan iqtiboslarni keltirish. Ularda olib borilgan ta'lim tizimidagi islohotlarni o'rganish yuzasidan olib boriladigan tadqiqot maqsad va vazifalari belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim to'g'risidagi qonun, asosiy farqi, ta'lim to'g'risidagi qonun mazmun-mohiyati, oilada ta'lim olish, mustaqil ta'lim olish, eksternat tartibidagi ta'lim, sirtqi, kechki, masofaviy ta'lim, dual ta'lim

## The prospect of bringing the Law on Education to a new stage

Sevara Kamil kizi Ergasheva  
Mohichehra Davronbek kizi Mamadaliyeva  
Uzbek Language and Literature University named after Alisher Navoi

**Abstract:** The article quotes about the new law in the educational sphere, types of education, reforms in the educational system. The goals and objectives of the research carried out on the study of reforms in the educational system carried out in them are determined.

**Keywords:** the new law on education, the main difference, the essence of the law on education, education in the family, independent education, education in the externate order, correspondence, evening, distance education, dual education

Ta'lim to'g'risidagi yangi qonun: asosiylari haqida qisqacha

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning yangi tahriri e'lon qilindi (23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son Qonun quyidagi havolada: <https://lex.uz/docs/-5013007>) Qonun “Xalq so'zi” gazetasida e'lon qilingan va 24.09.2020 yildan kuchga kirdi.[6]

Yangi qonunning asosiy farqlari

Ta'lim to'g'risidagi qonunni yangi tahririda ba'zi elementlari avvalgi ilovadan bir qancha o'zgarishlardan farq qiladi. Jumladan yangi qonun yangi imkoniyatlarni yaratishga, ta'lim olishni keng qamram olishga qaratilgan va aholining xamma qatlami ta'lim olishiga qaratilgan.[1-5]

*Birinchi*dan, ta'lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi:

- ◆ ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy);
- ◆ nazariy - ta'lim tashkiloti negizida, amaliy - ta'lim oluvchining ish joyida birga olib boriladigan dual ta'lim;
- ◆ oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- ◆ katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- ◆ jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun inklyuziv ta'lim;
- ◆ eksternat tartibidagi ta'lim - o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tish;
- ◆ mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

*Ikkinchi*dan, Vazirlar Mahkamasi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Ta'lim inspeksiyasi), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi.[5-6]

*Uchinchi*dan, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomiga ko'proq etibor qaratilgan[2-5]:

- ◆ ta'lim tashkilotlari - ularni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, ustavga talablar;
- ◆ pedagogik xodimlar, ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari - huquqlar, majburiyatlar va kafolatlar bo'yicha. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilangan.[5]

*To'rtinchi*dan, davlat ta'lim standartlari va talablari, o'quv jarayoniga o'quv rejalari va dasturlarini, ta'lim sohasiga eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni joriy etish bilan bog'liq masalalar tartibga solingan. O'qishga qabul qilish, jumladan maqsadli qabul qilish mexanizmi bayon etilgan; [1-5]

*Beshinchi*dan, davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish dastaklari reglamentlangan:

a) birinchilarga quyidagilar kiradi:

- ◆ nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash - litsenziyalar Ta'lim inspeksiyasi tomonidan cheklanmagan muddatga, har bir ta'lim turi uchun alohida beriladi;
- ◆ ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish - Ta'lim inspeksiyasi tomonidan 5 yil muddatga amalga oshiriladi. Bunda nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran 5 yil davomida akkreditatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi, bu muddat tugagach, ushbu attestatsiya va

akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Davlat akkreditatsiyasidan o'tgan tashkilotlar maxsus reyestrda kiritiladi, bu haqdagi ma'lumotlar Ta'lim inspeksiyasining saytiga joylashtiriladi;[5-7]

♦ xorijiy davlatda 1992 yil 1 yanvardan keyin olingan ta'lim to'g'risidagi hujjat tan olish, shuningdek ta'lim sohasidagi rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish. Tan olish va apostil qo'yish ham Ta'lim inspeksiyasi vakolatiga kiradi;[5-8]

b) Ta'lim inspeksiyasi quyidagilarga haqli:[5-9]

♦ nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va monitoringini amalga oshirish - biznes-ombudsmanni xabardor qilgan holda;

♦ ta'lim tashkilotlari tomonidan berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga nomuvofiqligini aniqlagan hollarda - ularni bartaraf etish yuzasidan ularga taqdimnomalar kiritish. Taqdimnoma bajarilmagan taqdirda - ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikatini bekor qilish.

*Prezident «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga imzo chekdi. Mazkur qonun bilan 1997 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlar o'z kuchini yo'qotdi.[6]*

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23 sentyabr kuni «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni imzolandi, deya xabar qildi Adliya vazirligi matbuot xizmati. Mazkur hujjat 19 may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilinib, 7 avgustda Senat tomonidan ma'qullangan edi.[5-8]

Qonunga muvofiq, ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 1997 yilda qabul qilingan bo'lib, ta'lim sifatini ta'minlashga qo'yilayotgan bugungi talablarga javob bermaydi.[2]

Mazkur yangi Qonunning qabul qilinishi esa ta'lim masalasining tarbiya bilan uzviy bog'liqligi ta'minlanadi. Bu bilan ijtimoiy hayotimizning hozirgi bosqichida, xususan, har bir yoshni shaxs sifatida ma'rifatli kamolga yetkazish ko'zda tutilmoqda.[5-6]

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim va tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilib, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turini takomillashtirishga xizmat qiladi.[6]

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'limning uzviyligini, mazmun jihatidan ketma-ketligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.[6-8]

Qolaversa, boshlang'ich, kasb-hunar ta'limi, kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shaklida umumta'lim va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida ta'lim amalga oshirilishi belgilanmoqda.[6-7]

Majlisda senatorlar yangi tahrirdagi qonun ko'plab hamyurtlarimizning oliy ta'lim, xorijda olingan ta'lim bo'yicha diplomlarni tan olish, ta'lim oluvchilar uchun vaqtincha yashash joylarini kafolatlash, masofaviy ta'lim, oilaviy ta'lim, inklyuziv ta'lim singari o'z savollariga yechim topishga qiynalayotgan masalalarga huquqiy oydinlik kiritilgani bilan ahamiyatli bo'lishini ta'kidladi.[5-8]

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.
2. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадиий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. *О'zМУ xabarlari*. Toshkent – 2022. №1/5.
3. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. *Eurasian Scientific Herald*. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.
4. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma"*Central Asian journal of theoretical and applied sciences* Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.
5. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 710-719. (2023)
6. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 734-745 (2023).
7. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995
8. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414

9. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.

10. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. Eurasian Scientific Herald, 7, 240–242. Retrieved from

11. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105.